

# “KO’MAK” TASHKILOTINING VUJUDGA KELISHIDAGI OMILLARI VA UNING JAMG‘ARMA FAOLIYATI

*SHDPI Tarix yo‘nalishi*

*3-bosqich talabasi*

*Abduraximova Hushnida*

**Annotatsiya.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadid taraqqiyat parvarlik harakati ko‘p asrlik o‘zbek xalqi tarixida muhim o‘rin egallaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jayev, Obidjon Mahmudov, Fitrat, Cho‘lpon, Saidnosir Mirjalilov va boshqalar mahalliy xalqni milliy istiqlol bayrog‘i ostida birlashtirish va hokimiyatni qo‘lga olib, milliy o‘zbek davlatini barpo etish yo‘lidagi ilk qadamni amalga oshirganlar. Ushbu maqolamizda esa o‘zbek talabalarini chet elda o‘qitish uchun tuzilgan “Ko’mak” tashkiloti haqida so‘z yuritamiz.

**Kalit so‘zlari:** Imdodiya, Sayidalixo‘ja, Musulmon xalq dorulfununi, A.V.Popov, Valihoji, Xakent, «Qamar» shirkati.

**Annotation.** The new progressive movement that emerged in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries occupies an important place in the centuries-old history of the Uzbek people. Mahmudkhodja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidkhanov, Ubaydulla Khodjayev, Obidjon Mahmudov, Fitrat, Cholpon, Saidnosir Mirjalilov and others united the local people under the banner of national independence and took the first step towards seizing power and establishing a national Uzbek state. In this article, we will talk about the "Komak" organization, which was created to educate Uzbek students abroad.

**Key words:** Imdodiya, Sayidalihaja, Muslim Folk Academy, A.V. Popov, Valihoji, Hakent, "Qamar" company.

**Абстрактный.** Современное прогрессивное движение, возникшее в Туркестане в конце 19 - начале 20 веков, занимает важное место в многовековой истории узбекского народа. Махмудходжса Бехбуди,

*Мунавваргари Абдурашидханов, Убайдулла Ходжаев, Обиджон Махмудов, Фитрат, Чолпон, Саидносир Мирджалилов и другие сделали первый шаг к объединению местного народа под знаменем национальной независимости, захвату власти и созданию национального узбекского государства. В этой статье мы поговорим об организации «Комак», которая была создана для обучения узбекских студентов за рубежом.*

**Ключевые слова:** Имодида, Саидалиходжа, Дарулфунуни мусульманского народа, А.В. Попов, Валиходжи, Хакент, компания «Камар».

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadid taraqqiyatparvarlik harakati ko'p asrlik o'zbek xalqi tarixida muhim o'rinnegallaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Obidjon Mahmudov, Fitrat, Cho'lpon, Saidnosir Mirjalilov va boshqalar mahalliy xalqni milliy istiqlol bayrog'i ostida birlashtirish va hokimiyatni qo'lga olib, milliy o'zbek davlatini barpo etish yo'lidagi ilk qadamni amalga oshirganlar. Ular mavjud tarixiy sharoitdan foydalanib, “Turon”, “Imdodiya” singari ma'rifiy jamiyatlar hamda “Sho'roi islom”, “Turk adam markaziyat” kabi milliy siyosiy tashkilotlarni tuzdilar. Taraqqiyatparvarlar xuddi shu davrda xalq va mamlakat taqdiriga aloqador muhim masalalar bilan shug'ullanib, xalqning yumuq ko'zlarini ochishga, uni erk, hurriyat va mustaqillik singari buyuk tarixiy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga intildilar. Turkistonda oliy ta'lim muassasalarining yo'qligi tufayli jadid taraqqiyatparvarlari yoshlarni chet ellarda o'qitish, ayniqsa, Yevropa ilm-fani yutuqlari bilan tanishtirish masalasiga alohida e'tibor qaratganlar 1909- yil 12-may kuni dastlab Toshkentda tuzilgan Turkiston jadidlarining “Jamiyati xayriya” tashkiloti talabalarni chet ellarda o'qitishga rahbarlik qildi. Turkistonda sovet tuzumi o'rnatilgach, 1918-yil 21-aprelda Toshkentning yangi shahar qismida A.V.Popov rahbarligida Turkiston davlat universiteti ochildi.[1] Bu oliy ta'lim dargohining pedagogik jamoasi ham, talabalari ham asosan yevropalik millatlar vakillaridan iborat edi. Mahalliy millatlar farzandlari uchun 1918-yil 12-mayda Toshkentning

eski shahar qismida Munavvar qori Abdurashidxonov rahbarligida Turkiston Musulmon xalq dorulfununi ochildi. Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy ham mazkur dorulfunun sho'basini ochishga kirishdi. Biroq, bolshevik hukumati tomonidan ruxsat berilmadi. Sovetlar o'z hokimiyatini mustahkamlab borishi bilan 1920 -yildayoq Turkiston xalq dorulfununi ham yopildi .Ayni paytda o'lkada Turkiston davlat universitetiga o'qishga kirish uchun tayyorlaydigan o'rta bosqich bilim yurtlari mavjud emas edi. Natijada Turkiston davlat universiteti talabalari orasidagi mahalliy yoshlarning ko'lami Moskvadagi o'zbek talabalaridan ham kamroq edi. Jumladan, 1920–21-o'quv yilida Turkiston dorulfununing 2500 talabasidan atigi 2 nafari, Dorul ilmi Sharqiya (Sharqshunoslik instituti)ning 200 talabasining 3 nafari o'zbek farzandlari bo'lib, Toshkent temir yo'l ishchilari fakultetida o'qiydigan 70 nafar o'quvchi orasida o'zbek millatiga mansub birorta ham talaba yo'q edi.Bu hol mahalliy ziyolilarning va yoshlarning jiddiy qarshiligiga sabab bo'ldi va avvaldan mavjud bo'lgan talabalarni chet ellarda o'qitish g'oyasi yana qaytadan kun tartibiga ko'tarildi. O'lkada ta'limni tashkil etish va boshqarishda O'zbek bilim hay'ati muhim tashkilot hisoblanar edi. Biroq, uning faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga ham sovet hukumati ma'murlari tomonidan ko'plab sun'iy to'siqlar qo'yilgan edi. Elbek talabalarni xorijda o'qitish masalasida quyidagilarni ma'lum qiladi: "Turkistondan chetga borib o'qish uchun 1921-yil boshlarida O'zbek bilim hay'ati tomonidan bir loyiha tuzilib, boshida student Sayyidalixo'ja bo'lgani holda bir necha o'quvchilarning ro'yxati olinib hukumatga topshirilgan edi. Bir necha muddat buning ketidan yurib, natijada hukumatimizning moddiy ko'mak bera olmasligi bilingach, bu masala o'z-o'zidan to'xtaldi. Lekin, o'quvchilarning orasida ko'tarilgan chetga ketib o'qish havasi esa buning bilan bitmad. O'quvchilardan qaysi bir o'ziga to'qroqlari (garchi borliq narsalarini sotib bo'lsa-da) yana chetga ketmak orzusida bo'ldilar.Bularning o'zaro tashabbusini ko'rgan O'zbek bilim hay'ati chetdan tomoshachi bo'lib tura olmadi. Bo'lsa-bo'lmasada umid bilan ishga kirishdi va chetga ketguchi studentlarning o'zlaridan bir

komissiya tuzib va bunga o’z a’zosi bo’lgan Sayyidalixo’jani shul komissiyaga boshliq etib, “Ko’mak” otida bir uyushma tuzildi”.

Biz eski idora vaqtida ilm yo’lida ko’rgan to’suqlarimiz to’g’risida ko’p yozdik, ko’p qichqirdik, nihoyat quruq shovqun-surondan foyda chiqmasligini tushunib amaliy suvratda ishlay boshladik. Bizning amaliyotimizga jonlik dalil qilib keyingi vaqtarda yoshlarimizda ilm yo’lida yolqinliq bir hissiyot uyg’ong’onini ko’rsata olamiz. Hech bir millatda his uyg’onmay madaniyatga yeta olmasligi ochiq haqiqatdir. Mana shu hisning o’zbek yoshlarida uyg’onishi o’zbek millatini ilmsizlik orqasida bo’yniga o’ralg’on zanjirdan qutqaza oladir. “Ko’mak” uyushmasi a’zolari bu to’g’ridan charchamasdan turadirlar. Bular hukumatdan ko’mak kutib o’lturmasdan, ionalar to’plab ishlay boshladi. “Ko’mak” uyushmasi iona to’plash bilan ishning yaxshi samaralik chiqmaslig’ini ko’zda tutib hukumatimizdan ko’mak so’rab tegishlik o’runlarg’a murojaat qildi. Shuning bilan barobar qo’shni jumhuriyatlarga ham ko’mak so’rab murojaat qilg’on edi. Bu murojaatga birinchi quchoqni Buxoro hukumati ochdi. Buxoro hukumati “Ko’mak” uyushmasi a’zolaridan ikki kishini o’z masorifi bilan chet ellardan o’quishni o’z ustiga oldi. Eshitishimizga qarag’onda Buxoro hukumati Turkistondan yana ikki o’quvchi yuborishni o’z ustiga olg’on. Har holda Buxoro hukumatining bir qarindoshliq muruvvatini butun Turkiston xalqi esidan chiqarmaydur.[3]

Uyushma kecha-kunduz ishlab turli yoqdan gadoylik qilib bo’lsada, bir kishini chetga jo’nata oldi (bizningcha – Abduvahhob Murodiy)”

Keyingi kunlarda «Ko’mak» uyushmasiga berilgan ionalarning hisobi juda ham ko’payib ketdi. Tushkan ionalarni uyushmaning bitta cassasi eplay olmag’anliqdan ikkinchi kassa ochmoqqa majbur bo‘lindi. Keyingi oyda iona bergen saxiylarning ro‘yxati mundaydir:

1. Valihoji — besh milliard so‘mga arziyturg‘an duo.
2. G’ulomshayx boybachcha — «O‘qushg‘a ketkan yigitlar mullo bo‘lsunlar» degan yaxshi tilak (baho qo‘yish komissiyasining so‘ziga qarag‘anda bu iona ham 5 milliardg‘a arzir ekan).

3. Azimboybachcha ko‘mirchi — sakkiz put toshko‘mir,
4. «Tujjor» shirkati — ikkita solol tovoq bilan bitta xurmacha.
5. «Qamar» shirkati — chorak qadoq olma choy.
6. Poyafzal bozoridag‘i do‘kondorlar o‘zaro — bir poy bachkana etik.
7. Chit bozorining do‘kondorlaridan — bir gazu uch chorak gazlama.
8. Attor og‘a-inilardan — ikki quti upa.
9. Qassobliqdan — besh dona o‘pka.
10. Qandolatchilardan — uch istakan pistashka bilan bir qadoq pashmak va boshqalar.

Ushbulardan Berlin o‘qug‘uchilarimizg‘a yuborildi:

Berlin talabalarimiz ortuqcha muhtoj bo‘lg‘anliqlaridan birinchi galda to‘rt put toshko‘mir, ikkita sopol tovoq, bir posilka duo yuborildi.[2]

Mana «Ko‘mak» hay’atiga 17 – 18 kun orasida qishloqlardan kelgan yordamlar: Haqqulobod mahkumidan: 30 chirvon, 500 (yuz) 32 so‘m pul. Qo‘rg‘ontepadan: 17 chirvon, 800 ming so‘m pul. Xakent(dan): 500 (yuz) 148 so‘m pul. Sultonoboddan: 9 chirvon, 500 (yuz) 22 so‘m pul. Oltunko‘ldan: 7 chirvon. Izboskantdan: 9 chirvon. Jaloloboddan: 9 chirvon. Bozorqo‘rg‘ondan: 12 chirvon. Barchasi: 88 chirvon, 205 ming so‘m pul. [1] Bu puldan berilgan yordamlar: Qo‘qon, Farg‘ona va Toshkant talabalariga (ko‘pi komanda qurslari talabalari): 49,5 chirvon. Samarqand va Maskov talabalarining yo‘l sarflariga: 12 chirvon, 10.000. 13 so‘m pul. Barchasi 70,5 chirvon, 130.000 ming so‘m pul. «Ko‘mak» hay’ati bu safargi kirimini reja bilan yaxshilab bo‘lub bera olmadi. Muning sababi qish o‘rtasida maktablar ta’til qilinib, shu munosabat bilan ko‘b talabalarning Andijonga kelib shoshilish yordam so‘rashlari bo‘ldi. Mundan keyin boshqa shaharlardagi bilim yurtlari bilan to‘g‘ri aloqa bog‘lab, andijonli talabalarning rejaliq ta’minotlariga kirishmakchidur.[3]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki maqolada "Ko‘mak" tashkilotining vujudga kelishi va uning jamg‘arma faoliyati haqida so‘z yuritiladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda, xususan, o‘zbeklar orasida milliy taraqqiyot va o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun juda ko‘p ma’rifatparvarlar va siyosiy

faoliyatlarni boshlagan. Ushbu harakatlar orasida, yoshlarni chet elda o'qitish g'oyasi ham alohida o'rinn tutdi. "Ko'mak" tashkiloti shu maqsadni ko'zlagan bo'lib, uning asosiy faoliyati talabalarni chet elda o'qitish uchun mablag' yig'ish va tashkiliy yordam ko'rsatish edi. Ularning maqsadi nafaqat ilm olishni, balki millatni zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan tanishtirish edi. "Ko'mak" tashkiloti bir necha marta hukumatdan moddiy yordam so'ragan, ammo boshlang'ich mablag'lar cheklangan bo'lgan. Shunga qaramay, ko'plab savdogarlar va boshqa fuqarolar tashabbusni qo'llab-quvvatlab, jamg'armaganalar topshirishdi. Buxoro hukumati birinchi bo'lib bu tashabbusni qo'llab-quvvatlab, bir nechta talabalarga chet elda o'qish imkoniyatini yaratdi. Shu tariqa, tashkilot faollari o'z maqsadlariga erishishga harakat qilib, o'zbek yoshlarni ilm olishga va zamonaviy bilimlarni egallashga undadi. Tashkilotning faoliyati, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar va yangi fikrlash tarzining paydo bo'lishida muhim rol o'ynadi. "Ko'mak" tashkiloti orqali talabalar o'qish va bilim olish imkoniyatiga ega bo'lishdi, bu esa uzoq kelajakda millatning taraqqiyotiga hissa qo'shgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Irzayev “Turkiston jadidlarning “Ko'mak” tashkiloti” Toshkent-2016.
2. Baroqxon talabasi (G'ozi Yunus). “Qizil bayroq” gazetasi. 1922-yil 22-iyul.
3. Muxbir: Dumbul.«Mushtum»: Oltun olma, duo ol — duo oltun emasmi?«Mushtum» — 1923 yil, 4-son, 6-bet.
4. Q. (Cho'lpon). «Farg'ona» gazetasi. 1924-yil 31-yanvar.
5. <https://Jadidlar.uz>
6. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.